



FITRAT DRAMALARIDA INSON VA JAMIYAT MUNOSABATLARI

Xalilova Ruxsora Raupovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Tolibova Maftuna Zokir qizi,

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi magistranti

Annotasiya: *Ushbu maqolada inson erki, yurt ozodligi, ikki qalb o'rtasidagi chin sevgining samimiy ko'nishi bilan birgalikda muqaddas Vatanning oldidagi asl sevgi tug'usi aks ettirilgan. Shu bilan bir qatorda pok muhabbatning qahri qattiq yog'iylar tomonidan achinarli toptalgani ochib berilgan.*

Annotation: *This article reflects the true essence of love for the sacred Homeland, along with human will, national independence, and the sincere acceptance of true love between two hearts. At the same time, it reveals how pure love was tragically trampled by ruthless enemies.*

Kalit so'zlar: *Fitrat, dramaturg, chin sevis, ingliz, fojea, g'alaba, ma'rifat, asar.*

Keywords: *Fitrat, playwright, true love, Englishman, tragedy, victory, enlightenment, work.*

KIRISH

Abdurauf Fitrat – o'zbek jadid adabiyotining yetuk namoyandasi, ma'rifatparvar va islohotchi yozuvchidir. Uning asarlari orasida dramaturgiya alohida o'rin tutadi. Fitrat dramalarida o'z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolari, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar chuqur yoritilgan. Ayniqsa, “Chin sevis” nomli dramasi o'zbek dramaturgiyasi rivojida muhim bosqich bo'lib, unda milliy ong, sevgi, erkinlik va jamiyatdagi an'anaviy qarashlarga qarshi kurash motivlari yoritilgan. Muallif bu dramatik asarga “Chin sevis” deb nom bergan bo'lib, u besh pardali ishqiy-hissiy fojeadir. Voqea Hindistonning Dehli shahrida bo'lib, ingliz ahliga qarshi yurt uchun, or-nomus uchun kurash olib borishadi.

Maqolada adabiy tahlil usuli qo'llanildi. “Chin sevis” dramasi matni asosida Fitratning dramatik uslubi, obrazlar tizimi, g'oya va mavzu tahlil qilindi. Unga ko'ra salbiy va ijobiy obrazlarni kitobxonga yetarlicha tushunarli qilib yoritib bergan. Fojeada milliy g'urur, ma'rifat va qabohat, xalqchil tuyg'ular, insonparvarlik va Vatanfurushlik kabi g'oyalar ilgari surilgan. Shuningdek, boshqa jadid dramaturglari bilan qiyosiy tahlil asosida Fitrat uslubining jadidchilik harakatidagi roli, har bir asaridagi milliy uyg'onish g'oyalari, xitobiy yo'nalishlar, da'vatlarining ta'sirchanligi kabi o'ziga xos jihatlari ochib berildi.

NATIJALAR

Fitratning “Chin sevis” dramasi quyidagi xususiyatlarga ega:



1. G‘oyaviylik – asarda sevgi va erkinlik g‘oyalari asosiy o‘rinda turadi. Unda nafaqat yor vasliga oshiqlik, balki, ona tuproqqa bo‘lgan cheksiz hurmat va kuchli muhabbat birgina “chin sevgi” nomi ostida birlashadi.

2. Konflikt – an‘anaviy qarashlar va yangicha dunyoqarash to‘qnashuvi asosiy dramatik kuchni tashkil qiladi.

3. Obrazlar – asar qahramonlari orqali Fitrat milliy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni, insoniy fazilatlarini ko‘rsatadi.

4. Til va uslub – dramatik dialoglar orqali muallifning publitsistik ruhi, ichki kechinmalari, muallifni yurak tubidagi haqiqatlari seziladi.

MUHOKAMA

“Chin sevish” dramasi o‘z davri uchun yangilik bo‘lgan sevgi va erkinlik masalalarini ko‘taradi. Fitrat an‘anaviy nikoh va majburiy turmush masalalariga qarshi chiqib, insoniy tuyg‘ularni qadrlashni targ‘ib qiladi. Bu esa uni jadid adabiyotida ilg‘or fikr sohibi sifatida ko‘rsatadi. Asardagi obrazlar zamonaviy insonning ruhiy kechinmalari bilan uyg‘unlashgan. Ushbu dramatik asar o‘zbek teatr sahnasida ulug‘ va ulug‘ligi qadar yuksak, go‘zal bir tomosha pyesasi bo‘ldi. Undagi qahramonlar obrazi ikki tomonlama qarshiliklar kórinishida aks etgan. Hindiston yurtsevarlaridan bo‘lgan Karimbaxshxon va uning o‘qimishli, go‘zal qizi Zulayho, Mashrab kabi telba oshiq ham shoir, faylasuf tabiatli Nuriddinxon. Bu qatnashchilar o‘zlarining sof dilligi va ezgu fikrlili bilan o‘quvchi qalbidan munosib o‘rin egallagan ijobiy obrazlar hisoblanadi. Boyvachcha Rahmatulloxon, Ayubxon, Sherxon, G‘ulomhaydar – Rahmatulloning fitnachi o‘rtoqlari. Bular salbiy obrazda bo‘lib kitobxon asarni óqiyotganda nafrat tuyg‘usini uyg‘otishga qodir qilib yozilgan. Shu o‘rinda yana bir ma‘rifatparvar jadidchilardan bo‘lgan Abdulhamid Cho‘lpon dramaga taqriz va yoki tanqid qilib o‘z qarashlarini bayon etib, asarga atroflicha fikrini bildiradi. Karimbaxshxonning qizi Zulayhoga oshiq bo‘lgan ikki yigitni shunday ta‘riflaydi: “biri o‘zgarishchi, yurtchi shoir Nuriddinxon, ikkinchisi – egri yurakli, anglizparast Rahmatulloxon.” [6]

Asarda inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar ayniqsa drama so‘ngida ya‘ni beshinchi pardada yaqqol aks etadi. Fojeaning kulminatsoin nuqtasi ham aynan shu yerda. Rahmatulloxon sevgisiga erishish uchun xunrezlik yo‘lini, xoinlik yo‘li tanlab, Hind elining yurtparvarlarining nohaq, bevaqt o‘limiga sababchi bo‘ladi. Asardagi yana bir haq ma‘rifatchi obrazida bo‘lgan rais o‘limi oldidan aytgan so‘ngi so‘zlari shu bo‘ladi: “Orqadoshlar! Unutmangiz... o‘lingiz-da... berilmangiz...” [1]

O‘z davrida o‘zbek dramalari va teatrining ahvoli haqida Vadud Mahmud maxsus maqolalar yozdi. “Chin sevish” shulardan biri. Muallifning fikricha, teatrda madaniy hordiq chiqarish uchun shart-sharoit qoniqarli darajada emas, kelgan kishi undan kayfiyati tushkun bo‘lib chiqib ketadi. Bunga “Chin sevish” aybdormi? Yo‘q! Uni kuchsiz pyesa deb bo‘ladimi? Yo‘q! Unday bo‘lsa gap nimada? Sababi ne? Hamma gap – tizginni o‘z qo‘llarida tutib qolgan kelgindi boshqaruvchilarning mahalliy xalq madaniy turmushiga ola qarashida, hukumat tomonidan zarur miqdordagi mablag‘ va asbob-uskunalar bilan yaxshi ta‘minlanmagan teatrning tang ahvoldaligida. Vadud Mahmud asarning obro‘si tushib



ketishini sira-sira xohlamaydi, teatrdagi sahnalashtirish bilan bog‘liq o‘sha nuqsonlarning tuzalib ketishini esa dil-dildan istaydi.

U pseyha haqida yana shunday yozadi: “Boshlang‘on ishning kundan-kun tuzalib, yaxahilanib borishi qonun kabi bo‘lsa-da, bizning hamma ishlarimiz kundan-kun buzilib, yomon yo‘lg‘a kirib boradir. Shu kabi teatru ishlarimizning ham ancha ortga chekinganligini bu kun o‘ynalg‘on “Chin sevish”dagi hollar ochiq ko‘rsatadir.[8]

XULOSA

Fitratning “Chin sevish” dramasi nafaqat o‘zbek dramaturgiyasining yuksalishida, balki o‘zbek adabiy tafakkurining shakllanishida ham muhim rol o‘ynagan. Asarda ilgari surilgan ijtimoiy va ma‘naviy g‘oyalar bugungi kunda ham dolzarb. Fitrat dramalari orqali xalqning milliy o‘zligiga, erkin fikrlashiga, insoniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati shakllangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Fitrat. Tanlangan asarlar. 3-jild. – T.: Ma‘naviyat, 2009.
2. A. Fitrat. Tanlangan asarlar. – T.: Ma‘naviyat, 2009.
3. Boltaboyev H. Jadidlar. – T.: Yoshlar, 2022.
4. Karimov N. Istiqlolni uyg‘otgan shoir. – T.: Ma‘naviyat, 2000.
5. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B. XX asr adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1999.
6. <http://n.ziyouz.com>
7. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.
8. V. Mahmud. “Qizil bayroq”gazetasi. 1921-y.